

6/2024,
noyabr-
dekabr
(№ 00074)



MILLIY KORXONALARNING JAHON BOZORIDAGI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT RAQOBAT SIYOSATINING AHAMIYATI

Mingboev Asqar Qandaharovich

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish
va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi,
mustaqil tadqiqotchi (PhD),

ORCID: 0009-0008-2655-8404

Email: a.mingboev@antimon.gov.uz

Mingboeva Gulrux Shavkatovna

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss6/614

Annotatsiya

Ushbu maqola milliy korxonalarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda davlat raqobat siyosatining ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan hamda tegishli xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: davlat, siyosat, yangi texnologiyalar, raqobatbardosh, milliy korxonona, jahon bozori, tovar bozori, rivojlanish, ustunlik, yondashuv.

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию значения государственной конкурентной политики в повышении конкурентоспособности национальных предприятий на мировом рынке, даны соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: государство, политика, новые технологии, конкурентоспособность, национальное предприятие, мировой рынок, товарный рынок, развитие, превосходство, подход.

Abstract

This article is devoted to the study of the importance of the state competition policy in increasing the competitiveness of national enterprises in the world market, and relevant conclusions and suggestions are given.

Keywords: state, politics, new technologies, competitiveness, national enterprise, world market, product market, development, superiority, approach.

KIRISH

Globalashuv insoniyat tarixidagi muqarrar hodisa bo'lib, u dunyoning tovar va mahsulotlar, axborot, bilim va madaniy qadriyatlar almashinuvi natijasida o'zaro bog'liq bo'lib borishidan iborat.

Jahon banki ma’lumotlariga ko’ra, so’nggi o’n yilliklarda yangi texnologiya, aloqa, fan, transport va sanoat kabi sohalardagi misli ko’rilmagan yutuqlar tufayli ushbu global integratsiyaning sur’ati ancha tez va ta’sirchanroq bo’lib bormoqda¹.

Bu borada mamlakatimiz iqtisodiyoti oldida turgan muammolarni tizimli asosda bartaraf etish muhim ustuvor ahamiyatga ega ekanligi to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagicha to’xtalib o’tgan edi: “Bugun biz shiddat bilan o’zgarib borayotgan zamonda yashamoqdamiz. Dunyo miqyosida manfaatlar kurashi, raqobat tobora avj olib, xalqaro vaziyat keskinlashib bormoqda. Biz kelgusi yil uchun amaliy rejalar tuzar ekanmiz, xalqaro maydondagi ana shunday murakkab vaziyatni hisobga olgan holda, taraqqiyotimizning ustuvor yo’nalishlarini aniq-ravshan belgilab olishimiz zarur” [1].

Zamonaviy sharoitda O’zbekistonda milliy korxonalarining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishda davlatning raqobat sohasidagi siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobat ikki asrdan ortiq vaqt davomida olimlarning diqqat-e’tiborida bo’lib kelgan. Raqobat fundamental iqtisodiy kategoriyalardan biri bo’lib, XVIII asrda klassik siyosiy iqtisodning ko’zga ko’ringan namoyandalarining asarlarida uning nazariy asoslari yaratilgan.

Shu bilan birga, tadqiqotchilarning ishlarida raqobat tushunchasining ko’plab talqinlari mavjud bo’lib, ularning barcha xilma-xilligi ushbu kontseptsiyani o’rganishning uchta asosiy yondashuviga umumlashtirish mumkin: xulq-atvor, tarkibiy va funktsional.

Korxonalarining raqobatdosh ustunliklarini o’rganish sohasidagi ilk ilmiy asoslar A. Smit tomonidan o’zi taklif qilgan “mutlaq ustunliklar” nazariyasi doirasida yaratilgan [2].

XX asrda raqobatdosh ustunlikning bir qancha yangi nazariyalari ishlab chiqildi. Shuni ta’kidlash kerakki, ularning aksariyati korxonalarining raqobatbardoshligining ko’plab omillaridan biriga yoki bir nechtasiga e’tibor qaratadi. Dunyo mamlakatlarida raqobatbardoshlikning shart-sharoitlari va omillarini tadqiq etish bilan bog’liq ilmiy-uslubiy yondashuvlarni o’zida aks ettirgan adabiyotlarni yaratishga XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab e’tibor yanada kuchaydi. Mamlakat va korxonalarining xalqaro raqobatbardoshlik darajasini tavsiflovchi mezonlar va ko’rsatkichlarni aniqlashga nisbatan qator ilmiy yondashuvlar amerikalik olimlar M.Porter [3] va P.Krugmanlar tomonidan amalga oshirildi.

Shu bilan birga MDH iqtisodchi olimlaridan S.Klimenko [4], T.Matveeva [5], R.Fatxutdinov [6] va boshqalar tomonidan raqobatbardoshlikning xalqaro darajasini shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga doir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari Sh.Ergashxodjaeva [7], A.Vaxabov, D.Tadjibaeva, Sh.Xajibakiev [8] va boshqalar tomonidan korxonalar raqobatbardoshligini oshirish shart-sharoitlari va omillarini tadqiq etishning ilmiy asoslarini yoritishga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Zamonaviy sharoitda milliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish shart-sharoitlari va omillarini tizimli tadqiq etish va ular o’rtasida uzviy aloqadorlikni ta’minlashga yo’naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Maqolada milliy korxonalarining jaxon bozoridagi raqobatbardoshligi oshirishda davlat siyosatining ahamiyati va unini amalga oshirishning samarali yo'llarini aniqlash hamda tahlil qilishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlarni tadqiq etish bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy xulosalari hamda mualliflarning amaliy tajribalari asosida mustaqil qarashlar shakllantirildi. Shu bilan birgalikda, mantiqiy va analitik taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida xalqaro darajadagi raqobat muhitiga moslashish va raqobatbardoshlikni ta'minlash jarayoni har bir mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Milliy korxonalar raqobatbardoshligining korxonalar va mamlakat darajasidagi omillaridan samarali foydalanishga doir muammolarni tizimli o'rganish, tadqiq etish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu maqolaning maqsadi milliy korxonalarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish omillari, raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar, milliy korxonalarining raqobat ustunliklarini ta'minlashga to'siq bo'layotgan omillar, mamlakatimizning raqobat borasidagi usutunliklari va milliy korxonalarimizning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini o'rganish hamda tavsiyalar berishdan iborat.

Hozirgi zamon tadqiqotlari natijalarining tahlili bugungi kunda tarmoqlar va korxonalar raqobatbardoshligi muammosining birinchi o'ringa chiqayotganligidan dalolat beradi.

Mashhur iqtisodchi M.Porter mamlakatlarning raqobatbardoshligini jahon bozorida ushbu mamlakatlarni ifodalovchi kompaniyalarning raqobatbardoshligi prizmasi orqali ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligini ko'rsatib berdi. Porterning fikriga ko'ra, bir davlatning raqobatbardoshligi millatning unumdorligi, ya'ni barcha mavjud resurslardan (xom ashyo, mehnat, kapital) samarali foydalanish bilan bog'liq. Davlatning iqtisodiyotdagi maqsadi fuqarolarga yuqori turmush darajasini ta'minlashdir. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi aniq korxonalar ta'minlaydi, korxonalar esa eng avvalo, asosiy raqobat ustunliklariga erishishi, ya'ni xarajatlarni kamaytirishi va mahsulotni tabaqalashtirishi zarur².

Boshqa tomondan, jahon bozorida raqobat kuchliligi sharoitida alohida korxonaning muvaffaqiyati mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlash uchun etarli emas. Hatto eng yangi texnologiyaga ega bo'lgan alohida korxonaga raqobat ustunligini saqlash qiyin, chunki u ishonchli milliy etkazib beruvchilar va kuchli raqobatchilarga bog'liq. Hozirgi vaqtda jahon bozorida o'zaro bog'liq tarmoqlar klasterlari raqobatlashadilar. Shu sababli O'zbekiston raqobatbardoshligi mohiyat jihatdan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarining raqobatbardoshligiga bog'liqdir.

Raqobatbardoshlik muammolari turli olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar doirasida o'rganilgan. Uslubiy tafovutlar bo'lishiga qaramay, milliy raqobatbardoshlik davlat diqqat-e'tiborida turgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biri ekanligi e'tirof etilgan.

Shuningdek, tadqiqotlarga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar yangi texnologik tarmoqlarga sarmoyalarga qaraganda ikki marta samaraliroqdir. Ayni vaqtda yirik

mamlakatlar iqtisodiy tarmoqlarining raqobatbardoshligi, asosan, mamlakat ichkarisidagi tadqiqotlarga, kichik mamlakatlarda esa chet eldan olinadigan innovatsiyalarga bog‘liq. Biroq tadqiqotlar va innovatsion rivojlanishga investitsiyalar mamlakat ko‘lamidan qat‘iy nazar, nafaqat yangi texnologiyali tarmoqlar, balki barcha tarmoqlar uchun ham samaralidir. Bundan tashqari, texnologik jihatdan qoloq sektorlarga ixtisoslashuv mamlakatdagi iqtisodiy o‘shishning pasayishiga olib kelishi mumkin [9].

Fundamental tadqiqotlar va innovatsion rivojlanishga investitsiyalarni kiritish uchun bizning mamlakatimizda barcha shart-sharoitlar mavjud. Raqobatbardoshlilik muammosiga ilmiy yondashuv unga mos nazariy-uslubiy echimni, aniqrog‘i esa O‘zbekiston milliy siyosatiga mos ustuvorliklar hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi asosiy yo‘nalishlarni tanlashni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi.

Mazkur strategiyada “Yangi O‘zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash nazarda tutilgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish, shu jumladan, milliy iqtisodiyotning mavjud salohiyatini ro‘yobga chiqarish, uning global ishlab chiqarish va qo‘shilgan qiymat zanjiriga integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, erkin bozor tamoyillarini amalda tatbiq etishni kengaytirish hamda O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zoligiga erishishni jadallashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyunidagi PF-85-son “Bozor islohotlarini yanada jiddiylashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni qabul qilindi.

Milliy raqobatbardoshlik – bu mamlakatning ichki va tashqi bozorlarda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish hamda shu asosda aholi yuqori daromadlari darajasini ta‘minlashga layoqatlilikidir. O‘zbekiston Respublikasi globallashtirish jarayonlarida faol qatnashgan tarzda milliy darajada uning salbiy oqibatlarini kamaytirish va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishib bormoqda.

Milliy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning zaruriyati, bozor munosabatlari rivojlanishining zamonaviy bosqichida raqobat kurashining keskinlashuvi, asosan xom-ashyo eksportiga qaratilgan yo‘nalishga jiddiy va keskin o‘zgartirishlar kiritishni taqoza etadi. Shu bilan birga, tayyor mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish jarayoni iqtisodiyotda jiddiy innovatsion va ilmiy-texnik omillarni o‘zlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mamlakatda amal qiladigan iqtisodiy tizim va mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi milliy iqtisodiyot, shu jumladan korxonalar raqobatbardoshligini ta‘minlash omillaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababli, rivojlangan, rivojlanayotgan, qoloq mamlakatlar korxonalari uchun raqobatbardoshlikni ta‘minlash omillari turlicha ahamiyat kasb etadi.

Rivojlanish darajasi turlicha mamlakatlar korxonalari uchun raqobatbardoshlikni ta'minlash omillari ³

Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar	Qoloq mamlakatlar
<ul style="list-style-type: none">• Ishlab chiqarishga yuqori darajadagi ilmiy va innovatsion yondashuv• Yuqori darajasidagi texnik va texnologik rivojlanish• Savodxonlik va kadrlar salohiyatining yuqori darajasi• Iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining axborot-kommunikatsiya tizimi orqali yuqori integratsiyalashuvi• Yuqori sur'atdagi qulay investitsion va innovatsion muhit• Sifatli, yuqori samaradorli bozor infratuzilmasi• Yuqori darajasidagi ichki bozor sig'imi• Yuqori darajada yo'lga qo'yilgan logistika	<ul style="list-style-type: none">• Yuqori sur'atdagi kapital samaradorlik• Tabiiy resurs salohiyatini yuqori darajada o'zlashtirilishi• Mehnat sig'imi va samaradorligining ortib borishi• Tarmoq va sohalarida yuqori o'sish sur'atlarining texnik va texnologik taraqqiyot darajasiga bog'liqligi• Yuqori darajadagi investitsion muhit va boshqalar	<ul style="list-style-type: none">• Mehnat resurslarining ko'pligi• O'zlashtirilmagan tabiiy resurs salohiyati va boshqalar

Yuqoridagilar bilan bir qatorda milliy korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun quyidagi shart-sharoitlarni taqozo etadi:

- milliy iqtisodiyotning ochiqligi va shaffofligi;
- eksport diversifikatsiyasi;
- makroiqtisodiy va siyosiy barqarorlik holati;
- barqaror ishbilarmonlik muhiti;
- iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining bozor kuchlari ta'siri ostidagi sog'lom raqobat muhitidagi xatti-harakati;
- bozorlarga kirish erkinligi;
- tabiiy va moliyaviy resurslardan foydalanishda teng sharoitlar mavjudligi va boshqalar.

O'zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridagi omillar bir qatorda mamlakatimizning asosiy raqobat ustunliklariga, quyidagilar kiradi:

- katta er, suv va boshqa tabiiy resurslar, qator foydali qazilmalarning mavjudligi;
- rivojlangan qishloq xo'jaligi va ko'p tarmoqli sanoat kompleksi;
- aholida shakllangan tadbirkorlik salohiyati va savdo qilish madaniyati;

- aholining yuqori umumiy ta’lim darajasi;
- aholining umumiy sonida mehnatga layoqatli yoshdagilar soni katta ulush (56,4%)ga egaligi va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda aholi savodxonligi va kadrlar salohiyatini oshirish, ilmiy va innovatsion yondashuvlarga, axborot va yangi texnologiyalarga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotganligi, milliy korxonalarimiz raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omil sifatida yuzaga chiqadi.


O‘rganishlar natijalaridan kelib chiqib, bizning fikrimizcha O‘zbekiston milliy korxonalarining raqobat ustunliklarini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator omillar ham mavjud:

- ishlab chiqarish jarayoniga ilmiy va innovatsion yondashuvning etarli darajada emasligi;
- kichik va o‘rta biznes uchun innovatsion infratuzilmalarning mavjud emasligi;
- texnik va texnologik rivojlanishning past darajasi;
- bozor sharoitida ishlash imkonini beradigan menejment tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- ilg‘or texnologiyalarga doir kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash darajasining pastligi;
- tovarlar va xizmatlar, kapitalar va ishchi kuchi ichki bozorida raqobat muhitining rivojlanmaganligi;
- korxonalarining bozor kuchlari ta’siridagi raqobatga moslashuvchan emasligi;
- bozorlarga kirishda ma’muriy cheklovlar;
- tanish-bilishchilik, mahalliychilik, guruhbozlik va korrupsion holatlarning mavjudligi;
- norasmiy va yashirin iqtisodiyot ulushining kattaligi.

Dunyo global iqtisodiyotining bir qismi bo‘lgan O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni erkinlashtirish va biznesni legallashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan hamon yashirin iqtisodiy sektor yuqoriligicha qolmoqda. O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotdan davlat byudjetiga 30 trln. so‘m, yalpi ichki mahsulotga 135 trln. so‘m zarar etkazilgan. Deyarli 11 mingta korxonalar (41 foiz) hisobotlarida faqat 1 kishini ishchi sifatida ko‘rsatgan .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 357,5 trln so‘mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 35,2 % ni tashkil etdi.

Shundan norasmiy iqtisodiyotning yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 274 trln so‘mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 27,0 % ni tashkil etdi. Yashirin iqtisodiyotning yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi esa 83,5 trln so‘mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 8,2 % ni tashkil etdi.



1-rasm. 2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ⁴

Shuni alohida ta'kidlash joizki tadbirkorlik sub'ektlarining shaffof faoliyat ko'rsatishi uchun qulay, engil va hatto jozibali shart-sharoit yaratish orqali norasmiy va yashirin iqtisodiyotga barham berish, korxonalar o'rtasidagi halol raqobat muhitini yaxshilaydi va shu orqali ularning ichki va tashqi bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Sog'lom raqobatga qarshi harakatlarga barham berish, iqtisodiy faoliyat erkinligi va iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish maqsadida amaldagi "Raqobat to'g'risida"gi va "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi qonunlar birlashtirildi va yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Yangi tahrirdagi qonunda "insofli raqobat", "qonuniylik", "iste'molchilar huquqlari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi", "shaffoflik", "tenglik" printsiplari alohida belgilangan [10].

Shuningdek, yangi tahrirdagi qonunda sog'lom raqobatni himoya qilish, raqobatga qarshi harakatlarning oldini olish va to'xtatish, raqobat muhitini rivojlantirish, tovar va moliya bozorlarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish, tovar va moliya bozorlari ishtirokchilarining iqtisodiy faoliyati erkinligini hamda tovarlarning erkin harakatlanishini ta'minlash, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, raqobat muhitini yaxshilash va rivojlantirish uchun respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining javobgarligini oshirish kabi raqobatni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari o'z aksini topgan. Bu o'z navbatida korxonalarining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Milliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning yana bir muhim jihati yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va o'zlashtirish hamda yangi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks tadqiqot va situatsion-tahliliy markazlarni tashkil etish. Ushbu markazlarda butun dunyoda yaratilayotgan yangi texnologiyalar va inovatsiyalarni o'rganish bilan birgalikda, yangi texnologiyalarni milliy korxonalariga joriy etish, zarur xom-ashyo va boshqa resurslar narxlari, logistika zanjirilarini tadqiq qilish, prognozlash va eng maqbul echimlarni milliy korxonalariga taqdim etishni joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur yo'nalish fan va innovatsiyalarni, kichik innovatsion tadbirkorlikni byudjet orqali qo'llab-quvvatlashni mujassamlashtiradi.

Milliy korxonalarimizning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yoʻnalishlari ⁵

Davlat tomonidan	Davlat va korxonalar oʻzaro hamkorlikda	Korxonalar tomonidan
<ul style="list-style-type: none"> • tashqi savdodagi tartibotlarini xalqaro amaliyotga muvofiq- lashtirish, JST tamoyillari va mexanizmlari tizimiga oʻtkazish; • mahalliy transport-logistika xizmatlarini koʻlamini kengaytirish, sifatini oshirish; • bojxona rasmiylashtiruv va maʼlumotlar bilan elektron ayirboshlash tartibini soddalashtirish; • eksportni qoʻllab-quvvatlash fondi va boshqalar mablagʻlari hisobidan ilgʻor ilmiy-texnik gʻoyalari, energiya va resurs tejakor texnologiyalardan foydalani ishlab chiqarishga joriy etishni ragʻbatlantirish; • tovar va moliya bozorlari ishtirokchilarining iqtisodiy faoliyati erkinligini taʼminlash; • davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, raqobat muhitini yaxshilash va rivojlantirish. 	<ul style="list-style-type: none"> • yangi xalqaro bozorlarga chiqish va anʼanaviy bozorlarda eksport tarkibini diversifikatsiyalash; • jahon bozorida faoliyat koʻrsatish sharoitlarini yaxshilash, davlat va milliy korxonalar manfaatlarini muhofazalash; • ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va samarali foydalanish mexanizmi hamda huquqiy sharoitlarini yaxshilash; • korxonalarda xalqaro standartlar negizida sifatni boshqarish tizimini joriy etish va ekologik sertifikatlashtirishga koʻmaklashish; • korxonalarining ilm sigʻimkorligi va texnologik darajasini oshirish, innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish va ilmiy-texnik siyosat olib borish; • milliy ishlanmalarni patentlashtirish va patent sofligini huquqiy himoyalashni taʼminlash. 	<ul style="list-style-type: none"> • resurs, energiya va material sigʻimkorlikni pasayishtirish; • etakchi brend korxonalar bilan korporativ aloqalarni rivojlantirish; • korxonalarda korporativ va tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish; • rivojlangan mamlakatlardan yangi texnologiyalar va «nou-xau»larni xarid qilish; • korxonalar faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish; • zamonaviy menejment usullarini joriy etgan holda korxonalarining boshqarish sifatini yaxshilash.

Taʼkidlash joizki, zamonaviy menejmentning ahamiyati korxonani va butun mamlakatni yuksalish va taraqqiyot yoʻliga yoʻnaltirishdadir. Shuningdek, mavjud inson resurslari va boshqa moddiy resurslardan samarali foydalanish qobiliyati orqali jamiyatda kutilgan muvaffaqiyatga erishish masʼuliyatidir. Shuning uchun menejment davlat xizmatlari va milliy korxonalar faoliyatida muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyasizlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega [11].

Tarmoqdagi ilmiy maʼlumotlarni topish va uni umumlashtirish uchun moʻljallangan sunʼiy intellekt - Consensus⁶ platformasi 200 mlndan ortiq ilmiy maqolalarni tahlil qilgan holda, zamonaviy boshqaruvning qarorlar qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish, samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va innovatsiyalarni ragʻbatlantirishga usullarini umumlashtirdi. Ushbu usullardan eng asosiylaridan biri - **boshqaruvga sunʼiy intellektni joriy qilishdir.**

⁵ Mualliflar tomonidan ishlab chiqildi

⁶ <https://consensus.app/questions/modern-management-techniques/>

Bugungi kunda davlat idoralari va korxonalarda avtomatlashtirilgan mijozlarga xizmat ko'rsatishdan boshlab, maqsadli marketing, ish jadvallarini optimallashtirish va mahsulot narxini monitoring qilish, raqobat muhitini o'rganishgacha sun'iy intellektdan foydalanish holatlari soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Kreativlik - boshqaruv usuli. Kreativlik, zamonaviy menejmentning yana bir muhim tarkibiy qismidir. Noodatiy fikrlash menejmlarni muammolarga yangi nuqtai nazardan yondashishga va innovatsion echimlarni ishlab chiqishga undaydi. Bunday yondashuv nafaqat tug'ma iste'dod, balki uni o'rganish va yaxshilash mumkin bo'lgan mahorat bo'lib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qimmatli aktivga aylanadi.

Agile (moslashuvchan) boshqaruv usuli. Agile-menedjment – shunchaki mashhur so'z emas, bu ko'plab kompaniyalar qabul qiladigan transformativ yondashuv. Qattiq tuzilishga tayanadigan an'anaviy boshqaruv usulidan farqli o'laroq, ushbu usul moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Jamoalarga islohotlarda bo'lgan o'zgarishlarga tezda moslashish tavsiya etiladi [12].

Ishonamizki, samarali boshqaruvning kaliti mavjud menejment usullarning eng yaxshisini birlashtira olish qobiliyatidadir. Lekin eng yaxshi natijalarga erishish uchun boshqaruvning zamonaviy va an'anaviy usullarning kombinatsiyasi - muvozanatini ta'minlash muhim.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Hozirgi sharoitda raqobatbardoshlik nafaqat makroiqtisodiy omillarni, balki ishchi kuchi sifati, uning innovatsiyalarni amalda joriy etish layoqatini ham hisobga oladi. Ta'limning yuqori darajasi – milliy iqtisodiyotning muhim dvigateli bo'lib, undan boshqa omillar bilan bir qatorda, respublika iqtisodiyotini innovatsion yo'lga o'tkazish va uning raqobatbardoshligini oshirish jarayonida keng foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi bilan kichik tuzilmalar uchun mavjud bo'lgan va unumli ishlashga, kichik partiyalarni ishlab chiqarishga imkon beradigan nisbatan arzon ishlab chiqarish vositalari va yangi texnologiyalar paydo bo'ladi.

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini nazariy tadqiq etish natijalarining tahlili xususiy sektorning YaIMdagi va yangi ish o'rinlarini yaratishdagi ulushining o'sishi, innovatsiyalarni joriy etish, axborot texnologiyalari, xususan sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish, bozorda raqobatni qo'llab-quvvatlash va iste'molchilarni muhofaza qilishga qaratilgan siyosatni takomillashtirish, bozor yo'nalishidagi institutsional tizimni rivojlantirish, korxonalarni boshqarishga zamonaviy menejmentning yangi usullarini joriy etish, ishlab chiqarish sohasida mehnat unumdorligini oshirish, korxonalariga kapitalning, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb etish suratini oshirish, ichki va tashqi bozorlarni kengaytirish O'zbekiston milliy korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillari ekanligi haqida xulosa qilish imkonini beradi.

Moslashuvchanlik endi shunchaki kerakli xususiyat emas, bu zaruratdir. An'anaviy va zamonaviy boshqaruv usulidan foydalangan holda jahon bozoridagi keskin raqobatga va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati rahbarni etakchi sifatida ajratib ko'rsatishi va milliy korxonalarining jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Петрозаводск: «Петроком», 1993. 319 с.
3. Портер М. Международная конкуренция / М. Портер; пер. с англ. – М.:Международные отношения, 1993. – 896 с.
4. Клименко С., Омеляненко Т., Барабась Д. [и др.].Управление конкурентоспособностью предприятия: учеб. пособ. / К.: КНЭУ, 2008. –520 с.
5. Матвеева Т., Криворотов В. Повышение конкурентоспособности промышленных предприятий на основе развития инновационной деятельности : учеб. пособие /— Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2018. — 152 с..
6. Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность организации в условиях кризиса: экономика, маркетинг, менеджмент / М.: Маркетинг,2002. – 892 с
7. Ergashxodjaeva Sh., Xalqaro raqobat. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2013 y.-328 b.
8. Vaxabov A., Tadjibaeva D., Xajibakiev Sh. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma.- T.: Moliya, 2011. - 708 b.
9. Fagerberg J. Technology and competitiveness. //Oxford Review of Economic Policy. 1996. Vol 12. N 3. P. 39-51.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyulda yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-850-son Qonuni.
11. Xamraxudjaev N., Mingboev A. Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasida sun‘iy intellektdan foydalanish istiqbollari. “Davlat fuqarolik xizmatida sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent-2024.
12. Xamraxudjaev N., Mingboev A. Davlat tomonidan monopol narxlarni tartibga solishda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish. Toshkent-2024.
13. Mingboev A. Tovarlarining monopol yuqori (past) narxlarini aniqlashni takomillashtirish masalalari. <https://zenodo.org/records/14221988>